



# “TISU IJTIMOIIY FANLARI VA INNOVATSION PEDAGOGIKA”

## ILMIY JURNALI

“TISU Ijtimoiy fanlari va innovatsion pedagogika” jurnali – Respublikadagi ijtimoiy fanlar, pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, falsafa va tarix yo’nalishlarida izlanish olib borayotgan olimlar, doktorantlar va tadqiqotchilar, Oliy ta’lim muassasalari professor-o’qituvchilari, ilmiy izlanuvchilar hamda magistrantlar, maktab va texnikumlarda faoliyat yuritayotgan o’qituvchilar, metodistlar va amaliyotchi pedagoglar, ta’lim sohasida innovatsion yondashuvlarni joriy etishga qiziquvchi mutaxassislarning ilmiy salohiyatini namoyon etuvchi maqolalari e’lon qilinadi.



**Muassis:**  
TERMIZ IQTISODIYOT VA  
SERVIS UNIVERSITETI

**TISU TIBBIYOT INNOVATSIYASI ILMIY  
JURNALI**

**Bosh muharrir:**  
Sattarov Abdusamat  
Umurqulovich

**Bosh muharrir o'rinbosari:**  
Qobulov Eshbolta Atamuratovich

**Mas'ul kotib:**  
Allamuratov Shuxrat Ashurovich

**Dizayner:**  
Meyliqulov Shahboz  
Xolmamatovich

**Jurnal har chorakda bir marotaba  
chop etiladi**

Jurnal O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti Administratsiyasi  
huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligining  
2023-yil 1-martdagi  
№ 066379- raqamli guvohnomasi  
bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal "PRINTWELL" MCHJ  
bosmaxonasida chop etildi.  
Manzil: Toshkent shahri  
Muqimiy ko'chasi, 170/14

Bosishga ruxsat etildi:  
27.11. 2025.

Qog'oz bichimi: 60x84 1/8  
"Times New Roman" garnitiruasi.  
Ofset bosma.  
Ofset bosma usulida bosildi.  
Shartli bosma tabog'i: 11.  
Adadi 10 nusxa.  
Bahosi kelishilgan narxda.  
Buyurtma № 1.

Jurnalning elektron shakli bilan  
<https://scientific.tues.uz>  
web saytida tanishish mumkin.

**Tahririyat manzili:**  
Surxondaryo viloyati,  
Termiz sh., "Yulduz" MFY,  
"Ibn Sino" ko'chasi.

## TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Bosh muharrir, Qabulov Eshbolta Atamuratovich –  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Tarix kafedrası professori, tarix fanlari doktori,  
Termiz, O'zbekiston. eshbolta\_qabulov@tues.uz

Bosh muharrir o'rinbosari – Salohiddinova Navro'za -  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Pedagogika kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi,  
Termiz, O'zbekiston. navruza\_salohiddinova@tues.uz

Tarix fanlari muharriri Tursunov Nurillo Narzullayevich -  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Tarix kafedrası professori v.b, tarix fanlari doktori,  
Termiz, O'zbekiston. nurillo\_tursunov@tues.uz

Ijtimoiy fanlar muharriri, Tursunov Muxiddin Boltayevich –  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, sotsiologiya fanlari nomzodi,  
Termiz, O'zbekiston. muxiddin\_tursunov@tues.uz

Jismoniy madaniyat fanlari muharriri – Begimqulov Oltiboy  
Jo'rayevich - Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Jismoniy madaniyat kafedrası professori,  
Termiz, O'zbekiston. oltiboy\_begimqulov@tues.uz

Pedagogika fanlari muharriri – Narboshova Maqsuda Achilovna -  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Pedagogika kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi,  
Termiz, O'zbekiston. maqsuda\_narboshova@tues.uz

Rus tili va adabiyoti muharriri – Sattarova Elena Anatolevna –  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Rus tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari  
falsafa doktori, Termiz, O'zbekiston. elena\_sattarova@tues.uz

Ingliz filologiyasi muharriri – Urolova Oysuluv Poyon qizi -  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Ingliz tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari  
falsafa doktori, Termiz, O'zbekiston. oysuluv\_urolova@tues.uz

# MUNDARIJA

## **G. E. TURAYEVA**

Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy tarbiyalashda o'quv jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish.....3

## **G.T. JUMAYEVA**

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda pedagogik yondashuv asoslari.....6

## **O.Ch.XOLOV**

Yosh avlodni tarbiyalashda aksiologiyaning ahamiyati.....10

## **N.M. SALOXITDINOVA**

Zamonaviy ta'lim sharoitida xorijiy tajriba va steam ta'limi.....14

## **B.X. ABRAYEV, I.N. XAYRULLAYEV**

Matritsalar va odam anatomiyasida fanlararo integratsiya va funksional o'xshashliklar haqida tizimli yondashuv.....17

## **M.Y.MADIEVA**

Translation strategies and linguistic adaptation of English brand names in Russian and Uzbek contexts.....22

## **S.Q. ESHBOYEVA**

4K yondashuv samarali ta'lim kafolati.....26

## **N.N. SHODIYEVA**

Erta nikoh qurishning oila mustahkamligiga ta'siri.....30

## **K.Sh.OLTIBOYEVA**

Shaxs intellektual rivojlanishi - pedagogik muammo sifatida.....34

## **U.A. TASHBAYEVA**

Talabalarda emotsional intellektni rivojlantirish orqali kommunikativ tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyalari.....37

## **M.Y.MADIEVA**

Brend nomlarining medialingvistik tahlili: o'zbek tilidagi milliy leksik birliklar asosida....41

## **R.D. NORQOBILOVA**

Pedagogik konfliktlarda gender omilining roli.....47

## **G'.A. MAMARAJABOV**

Surxon vohasi amaliy san'atning rivojlanishida hunarmandlar faoliyati.....50

## **F.A. ABDURAZZOQOV**

Mamlakatda maktabgacha yoshdagi bolalarning kuchli zilzila bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanishga tayyorlashning ta'sirchan va samarali mexanizmlari.....54

## **A.Ch. QOSIMOV**

Surxon vohasida an'anaviy qo'ychilik va ularning vohaga xos xususiyatlari.....58

## **M.X. FAYZULLAYEVA**

Tarixiy yozma manbalar va ilmiy adabiyotlar qimmatli manba sifatida.....62

## **S.A. JABBOROVA**

Tarixiy yozma manbalar va ilmiy adabiyotlar qimmatli manba sifatida.....67

## **F. YORMATOV**

Mamlakatimizda nuroniylarni ijtimoiy himoyalashning ustivor yo'nalishlari .....70

## **R. R. KHAMRAEVA**

Linguistic Creativity in Science Fiction Translation: from Asimov's Robots to Modern AI Narratives.....76

## **I.H. JUMAYEV**

"Qutadg'u bilig" dostonida insoniy nuqsonlarning badiiy ifodasi.....80

## **N.A. UMAROVA**

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentli shakillantirish.....84

## **I.B. QARSHIYEVA**

Talabalarga jadidchilar asarlaridagi ma'rifiy qadriyatlarini o'rgatishning pedagogik shart-sharoitlari.....89



Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrası o'qituvchi  
Qarshiyeva Iroda Baxtiyarovna

## TALABALARGA JADIDCHILAR ASARLARIDAGI MA'RIFIY QADRIYATLARNI O'RGATISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI.

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jadidchilik harakati vakillarining asarlarida ifodalangan ma'rifiy qadriyatlar, ularni talabalarga o'rgatishning pedagogik ahamiyati hamda bu jarayonni samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar yaratishda ilmiy tadqiqotlar tarixiy va pedagogik yondashuvlar asosida jadidlar merosini ta'lim jarayoniga tatbiq etish yo'llari to'g'risida so'z borgan.

**Kalit so'zlar:** jadidchilik, ma'rifiy qadriyatlar, pedagogik shart-sharoit, ta'lim jarayoni, talaba, ma'naviy tarbiya, interfaol metodlar.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются образовательные ценности, выраженные в трудах представителей джадидского движения, педагогическое значение их преподавания студентам, а также пути внедрения джадидского наследия в образовательный процесс на основе научно-исследовательского, историко-педагогического подходов в создании необходимых условий для эффективной организации этого процесса.

**Ключевые слова:** джадидизм, образовательные ценности, педагогические условия, образовательный процесс, студент, духовное воспитание, интерактивные методы.

### ABSTRACT

This article discusses the educational values expressed in the works of representatives of the Jadid movement, the pedagogical importance of teaching them to students, and ways to implement the Jadid heritage in the educational process based on scientific research, historical and pedagogical approaches in creating the necessary conditions for the effective organization of this process.

**Keywords:** Jadidism, educational values, pedagogical conditions, educational process, student, spiritual education, interactive methods.

**Kirish.** Bugungi globallashuv davrida yosh avlodni har tomonlama yetuk, ma'naviy barkamol, mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalash ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlar ta'lim-tarbiya jarayoniga yangicha yondashuvni talab etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, milliy o'zlikni anglash, tarixiy merosni chuqur o'rganish va jadidchilik harakatining ma'rifiy g'oyalarini ta'lim tizimiga tatbiq etish bugungi kunda dolzarb masalaga aylanmoqda. Jadidchilik harakati XX asr boshlarida O'rta Osiyo xalqlari orasida ma'rifat, ilm-fan, madaniyat va milliy uyg'onish g'oyalarini ilgari surgan keng ijtimoiy harakat bo'lib, uning asosiy vakillari - Ismoil Gaspirinskiy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ziyolilar xalqni jaholat va qoloqlikdan chiqarish, ilm va tafakkurga undash, zamonaviy ta'lim tizimini yaratish yo'lida fidokorona mehnat qilganlar. Ularning

asarlarida insonning kamol topishida ilmning, axloqning, mehnatsevarlik va vatanparvarlikning o'rni alohida e'tirof etilgan. Hozirgi kunda ta'lim tizimida jadidlar merosini o'rganish va uni yoshlar ongiga singdirish ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning muhim yo'nalishiga aylandi. Chunki jadidlarning asarlarida ilgari surilgan g'oyalar — ilmga chanqoqlik, millatga sadoqat, insonparvarlik, adolat, axloqiy poklik kabi qadriyatlar yoshlarni ijtimoiy faol, mas'uliyatli va ma'naviy yetuk shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, ularning asarlari bugungi kunda ham yosh avlodni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega. Zamonaviy oliy ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri talabalarga milliy qadriyatlar, ma'naviy meros va ma'rifatparvarlik g'oyalarini chuqur singdirishdir. Jadidlar merosi bu jarayonda boy metodik manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

Jadidchilikning markazida "ma'rifat orqali taraqqiyot" g'oyasi turadi. Ismoilbek Gaspirali



“Til, fikr, ishda birlik” shiorini ilgari surib, xalqni ilmga chorlagan; Mahmudxo‘ja Behbudiy “Padarkush”, “Bayonoti sayyoh” kabi asarlarida jaholat oqibatlarini fosh etgan; Abdulla Avloniy esa “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida yoshlarning tarbiyasiga bag‘ishlab ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni asoslab bergan. Bu asarlarda quyidagi asosiy ma’rifiy qadriyatlar ilgari suriladi:

- ilm va o‘qishning hayotdagi o‘rni;
- axloqiy poklik va halollik;
- millat va Vatan taqdiri uchun mas’uliyat;
- ayollarga hurmat va gender tenglik;
- mustaqil fikrlash va tanqidiy tafakkur;
- mehnatsevarlik va intilish.

Ushbu qadriyatlar bugungi talaba yoshlar uchun ham muhim hayotiy mezonlardir.

Talabalarga jadidlar merosini o‘rgatishning pedagogik shart-sharoitlari

Talabalarga jadidlar asarlaridagi ma’rifiy qadriyatlarni samarali o‘rgatish uchun bir qator pedagogik shart-sharoitlarni yaratish zarur:

1. Ma’naviy-motivatsion muhit yaratish. Talabalarda jadidlar faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg‘otish, ularning asarlaridagi zamonaviylik va ijtimoiy ahamiyatni ochib berish kerak. Bunda muallimning shaxsiy namunasi, milliy g‘urur va ma’naviy ong muhim rol o‘ynaydi.

2. Faol ta’lim metodlarini qo‘llash. Jadidlar merosini o‘rganishda interfaol metodlar - “fikrlar almashinuvi”, “munozara”, “rol o‘ynash”, “klaster” kabi usullar samarali bo‘ladi. Bu talabalarda mustaqil fikrlashni va o‘z pozitsiyasini himoya qilishni o‘rgatadi.

3. Axborot texnologiyalaridan foydalanish. Jadidlar asarlarini raqamli shaklda o‘rganish, audio-kitoblar, videodarslar, elektron kutubxonalar va multimedia vositalaridan foydalanish orqali jarayonni qiziqarli qilish mumkin.

4. Integratsiyalashgan yondashuv. Ma’rifiy qadriyatlarni o‘rganish jarayoni faqat tarix yoki adabiyot darslariga emas, balki pedagogika, falsafa, madaniyatshunoslik kabi fanlar bilan uzviy bog‘lanishi lozim.

5. Tadqiqotga yo‘naltirilgan ta’lim. Talabalarga jadidlarning asarlarini tahlil qilish, ularning ijtimoiy-falsafiy qarashlarini hozirgi davr bilan solishtirish topshiriqlari berilishi kerak. Bu ijodiy izlanish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Mazkur pedagogik shart-sharoitlar asosida o‘tkazilgan ta’lim jarayoni quyidagi natijalarga

olib keladi:

- talabalar milliy ma’naviyat va ma’rifat tarixini chuqur anglaydi;
- mustaqil, tanqidiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi;
- milliy o‘zlik, vatanparvarlik, mas’uliyat hissi mustahkamlanadi;
- zamonaviy ijtimoiy jarayonlarga faol fuqarolik pozitsiyasi shakllanadi.

Adabiyotlar sharhi Jadidchilik harakati bo‘yicha ilk ilmiy izlanishlar O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng keng miqyosda o‘rganila boshlandi. Tadqiqotchilar Ismoil G‘aspirinskiy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi jadid ziyolilarining pedagogik, ma’naviy va ma’rifiy qarashlarini tahlil qildilar. Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining “Padarkush” pyesasida ilm va jaholat o‘rtasidagi ziddiyatni ko‘rsatgan holda, xalqni ma’rifat orqali najotga eltish g‘oyasini ilgari suradi. Abdulla Avloniy esa “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida axloq, odob, ilm va mehnatni shaxs kamolotining eng muhim mezonlari sifatida talqin etgan. Abdurauf Fitratning “Rahbari najot” hamda “Oila” asarlarida esa shaxsning ma’naviy tarbiyasida ta’limning o‘rni alohida ta’kidlanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotning metodologik asosini ta’lim jarayonida ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlarni shakllantirishga oid zamonaviy pedagogik va psixologik nazariyalar tashkil etadi. Tadqiqot “ta’lim - tarbiya jarayonining birligi”, “shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim”, “faol o‘qitish texnologiyalari” hamda “madaniy merosni saqlash va rivojlantirish” tamoyillariga tayanadi. Metodologiyaning asosiy maqsadi - talabalarga jadidchilik harakati vakillarining asarlarida ilgari surilgan ma’rifiy qadriyatlarni o‘rgatish jarayonining samarali usullarini aniqlash, bu jarayon uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni asoslash hamda ularning ta’sirini amaliy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

**Tahlil va natijalar** O‘zbekiston tarixida jadidchilik harakati millatni ma’rifat, ilm va tafakkur orqali yuksaltirishga qaratilgan eng muhim harakatlardan biridir. XX asr boshlarida faoliyat yuritgan jadid ziyolilari xalqni jaholat, savodsizlik, qoloqlikdan chiqarish, yangicha fikrlash va o‘qitish tizimini joriy etish orqali milliy uyg‘onish g‘oyasini ilgari surganlar. Ularning asarlarida ma’rifat, axloq,

vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, ilmga intilish kabi qadriyatlar yuksak darajada targ'ib etilgan. Bugungi kunda bu qadriyatlarni talabalarga o'rgatish ma'naviy tarbiyaning ajralmas qismiga aylangan. Jadidlar uchun eng muhim g'oya - bu ma'rifat orqali millatni najotga yetkazish edi. Ismoil Gaspirinskiy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat singari ziyolilar yangi usuldagi maktablarni tashkil etish, zamonaviy fanlarni o'qitish va yoshlarni bilimga undashga katta e'tibor qaratganlar. Masalan, Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida axloqiy tarbiyani inson kamolotining asosi sifatida ko'rsatadi. Fitratning "Rahbari najot" asarida esa insonning najoti ilm va tafakkurda, deb ta'kidlanadi. Bu g'oyalar hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Talabalarga jadidchilar asarlaridagi ma'rifiy qadriyatlarni o'rgatish ularning dunyoqarashini kengaytiradi, milliy g'urur va o'zlikni anglash hissini mustahkamlaydi. Bu jarayonni samarali tashkil etish uchun o'qituvchi ma'naviy jihatdan yetuk, izlanuvchan, zamonaviy pedagogik yondashuvlarga ega bo'lishi lozim. Pedagog jadidlar hayoti, asarlari va faoliyatini chuqur o'rganib, ularni dars jarayonida interfaol metodlar yordamida talabalarga singdirishi kerak. Jadidlar merosini o'rgatish jarayonida "Aqliy hujum", "Debat", "Rol o'ynash", "Tahlil va muhokama", "Klaster" kabi interfaol metodlardan foydalanish foydali natija beradi. Talabalarga jadidlarning asarlari asosida insholar yozish, ma'naviy kechalar o'tkazish, ularning fikrlarini hozirgi zamon bilan taqqoslab tahlil qilish topshiriqlari berilishi mumkin. Shuningdek, multimedia vositalari, videomateriallar va elektron darsliklardan foydalanish orqali dars jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish mumkin. Pedagogik shart-sharoitlarning muhim omillaridan biri - bu ta'lim muhitining ma'naviy jihatdan boy bo'lishidir. Talabalar jadidlarning hayoti va faoliyatini o'rganar ekanlar, o'zlarida ma'rifatparvarlik, milliy g'urur, axloqiy poklik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni shakllantiradilar. Jadidlar ilgari surgan "Millatni najotga olib boruvchi yagona yo'l - ilm va ma'rifatdir" degan g'oya yoshlar qalbida o'z hayotiy shioriga aylanishi kerak. Shuningdek, o'qituvchi shaxsining roli bu jarayonda alohida ahamiyatga ega. O'qituvchi jadidlar singari ma'rifatparvar, vatanparvar, yangilikka intiluvchi, o'z kasbiga sadoqatli

bo'lishi lozim. Chunki o'qituvchining shaxsiy namunasi orqali talabalar jadidlarning hayotiy g'oyalarini chuqurroq anglaydilar.

Xulosa Xulosa qilib aytganda, jadidchilik harakati asarlarida ilgari surilgan ma'rifiy qadriyatlarni talabalarga o'rgatish bugungi ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Bu qadriyatlar yoshlarni bilimli, tafakkurli, ma'naviy yetuk va vatanparvar insonlar qilib tarbiyalashga xizmat qiladi. Shuning uchun oliy ta'lim muassasalarida jadidlar merosini o'qitish, ularning asarlaridagi ma'naviy g'oyalarni amaliy o'qitish jarayoniga kiritish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida talabalarga yetkazish zarurdir. Jadidlarning ma'rifat, milliy uyg'onish va ilmga intilish haqidagi qarashlari bugungi kunda ham yosh avlod uchun yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qilmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent, 1913.
2. Mahmudxo'ja Behbudiy. Padarkush. – Samarqand, 1911.
3. Abdurauf Fitrat. Rahbari najot. – Buxoro, 1917.
4. Qodirov A. Jadidchilik harakati va ma'naviy uyg'onish. – Toshkent, 2021.
5. [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz), [www.edu.uz](http://www.edu.uz)